

JADIDLARNING JAMIYAT TARAQQIYOTI HAQIDAGI QARASHLARIDA IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY ISLOHOTLAR

Patiyev Xoldor Ikromovich

Termiz davlat pedagogika instituti Falsafa, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
kafedrası o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada jadidchilik harakatining jamiyat taraqqiyotiga oid qarashlari, xususan iqtisodiy, ijtimoiy, ta'limiy va madaniy islohotlar haqidagi g'oyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlarning jadidchilikka bergan baholari ham yoritiladi.*

***Kalit so'zlar.** Jadidchilik, milliy uyg'onish, jamiyat taraqqiyoti, ma'rifatparvarlik, ta'lim islohoti, ijtimoiy modernizatsiya, iqtisodiy islohotlar, madaniy yangilanish, milliy o'zlik, matbuot faoliyati.*

Kirish. Jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston jamiyatida yuzaga kelgan eng muhim ma'rifiy va ijtimoiy harakatlardan biri bo'lib, u jamiyatni modernizatsiya qilish, milliy uyg'onishni kuchaytirish va yangi dunyoqarashni shakllantirishni maqsad qilgan edi. Jadidlarning milliy uyg'onish haqidagi qarashlari, eng avvalo, xalqning milliy o'zligini anglash, madaniyati va tarixiy merosini tiklash bilan bog'liq edi. Ular millat taraqqiyotini ta'minlash uchun zamonaviy bilimlarga tayanish zarurligini ta'kidlab, ta'lim tizimini isloh qilishni ustuvor vazifa sifatida belgiladilar. Shu jihatdan, jadidchilik harakati nafaqat ma'rifiy, balki ijtimoiy-siyosiy mazmunga ham ega bo'lgan kompleks harakat sifatida namoyon bo'ldi.

Asosiy qism. Jadidlar zamonaviy iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish, ishlab chiqarish va savdo sohalarini rivojlantirish hamda milliy burjuaziyani

qo'llab-quvvatlash orqali jamiyatni modernizatsiya qilish zarurligini ilgari surdilar. Ularning fikricha, bu jarayonda ta'lim islohotlari markaziy o'rinni egallaydi. Damir Sattorov ta'kidlaganidek: "Jadidchilik, ayniqsa, ta'lim islohotlari orqali zamonaviy jamiyatni shakllantirishga qaratilgan intilish bo'lib, uning ta'siri bugungi kunda ham O'zbekistondagi ijtimoiy islohotlar jarayonida seziladi"¹. Jadidlar yosh avlod tarbiyasini milliy taraqqiyotning asosiy omili deb bildilar. Ular zamonaviy bilimga ega, ijtimoiy faol va milliy qadriyatlarga sodiq shaxsni shakllantirishga intildilar. Shu bilan birga ayollar ta'limi ham muhim yo'nalish sifatida qaraldi. Jadidchilik harakati xorijiy olimlar tomonidan ham keng o'rganilgan. Mehmet Tutunju:

"Jadidchilik — bu Markaziy Osiyoning o'z taqdirini qo'lga olishga bo'lgan harakati bo'lib, unda milliy o'zlikni saqlash va rivojlantirish asosiy maqsad bo'lgan"² deb fikr bildirsa, Temur Xo'ja o'g'li esa jadidchilikni "xalqning intellektual uyg'onishini ta'minlagan kuchli ijtimoiy va madaniy harakat" deb baholaydi³. Jadidlar milliy madaniyatni rivojlantirish orqali jamiyat ongini yuksaltirishga intildilar. Ular ta'lim, matbuot va madaniy muassasalarni rivojlantirish orqali yangi dunyoqarashni shakllantirishni maqsad qildilar.

Qirimlik olim Sergey Abashin fikricha: "Jadidchilik O'rta Osiyo jamiyatida faqat zamonaviy ta'limni emas, balki milliy madaniyatni yangilash uchun keng ko'lamlı harakatni boshlab berdi"⁴. Jadidlar jamiyatning barcha qatlamlarini, jumladan ayollarni ham ma'rifat jarayoniga jalb etishga harakat qildilar.

¹ Sattorov D. Jadidchilikning ta'lim va madaniyat sohasidagi islohotlari. T.: 2022. Yangi Asr Nashriyoti. -B:24

² Tutuncu M. Central Asian Reformers and Their Educational Legacy. Istanbul:2007. Bilim ve Sanat Vakfi. -B:47

³ Temur Xo'ja o'g'li. Milliy uyg'onish falsafasi va uning mintaqaviy ahamiyati. Anqara: 2020. Türk Tarih Kurumu. -B:73

⁴ Sergey Abashin. Cultural Processes and Transcultural Influences In Contemporary Central Asia. S. Abashin Cultural Processes ... 2008. Transl. KM & OL Sands. -B.17

Qozoqistonlik tadqiqodchi Gulnar Mendikulova bu mulohazalarda ayollar masalasiga e'tibor qaratib, "Jadidlar ayollarning ilm va ta'lim olishiga imkon yaratgan holda, jamiyatning madaniy yuksalishiga poydevor qo'ydilar"⁵-deya ma'lumot beradi. Jadid namoyondalarining matbuotga alohida e'tibor berishiga sabab, ular o'z davri uchun asosiy qurol yoki vosita sifatida aynan matbuotni bilaganlar. Jadidlar matbuotni milliy ongni shakllantirish va ma'rifatni yoyishning muhim vositasi deb bildilar. Xususan, bu haqida Fuad Axundov – "Turkiston jadidlari matbuot va nashriyot faoliyatida xalqning milliy ongi va ma'rifatini oshirishga qaratilgan yondashuvlarni qo'llaganlar"-deb fikr bildirgan. Jadidlar diniy va dunyoviy bilimni uyg'unlashtirish orqali yangi ijtimoiy ongni shakllantirishga intildilar. Dmitriy Arapov fikricha: "Jadidlar diniy va dunyoviy ilmni uyg'unlashtirish orqali O'rta Osiyo xalqlari madaniyati va mafkurasiga tub o'zgarishlar kiritdilar"⁶. Yuqoridagi mualliflar jadidchilikni xalqimiz tarixi va madaniy hayotidagi o'rning qay darajada yuqori bo'lganligini bildiradi. Bugungi kunda ham jadidchilik g'oyalari O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarining ta'lim va madaniy islohotlarida o'z aksini topmoqda. 2023 yilda amalga oshirilgan ta'lim islohotlari jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan uyg'unligi bilan ajralib turadi.

Xulosa. Jadidchilik harakati Turkiston tarixida milliy uyg'unish, ta'lim islohoti va madaniy yangilanish jarayonining muhim bosqichi bo'lib, u jamiyatni kompleks modernizatsiya qilish g'oyasiga asoslangan edi.

Foydalanilgan manbalar.

⁵ Mendikulova, G. Kazakh Jadidism and Its Role in Social Transformation. Astana: Nazarbayev University Press. 2019.-B:38

⁶ Arapov, D. Sovremennoe izucheniye dzhadidizma v Sredney Azii. Moskva: Akademiya. 2015.-C:12

1. Sattorov D. Jadidchilikning ta'lim va madaniyat sohasidagi islohotlari. T.: 2022. Yangi Asr Nashriyoti. -B:24
2. Tutuncu M. Central Asian Reformers and Their Educational Legacy. Istanbul:2007. Bilim ve Sanat Vakfı. -B:47
3. Temur Xo'jao'g'li. Milliy uyg'onish falsafasi va uning mintaqaviy ahamiyati. Anqara: 2020. Türk Tarih Kurumu. -B:73
4. Sergey Abashin. Cultural Processes and Transcultural Influences In Contemporary Central Asia. S. Abashin Cultural Processes ... 2008. Transl. KM & OL Sands. -B.17
5. Mendikulova, G. Kazakh Jadidism and Its Role in Social Transformation. Astana: Nazarbayev University Press. 2019. -B:38
6. Arapov, D. Sovremennoe izuchenie dzhadidizma v Sredney Azii. Moskva: Akademiya. 2015. -C:12